

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini
2024-yilda amalga oshirish “Yo‘l xaritasi”da belgilangan topshiriqlar bo‘yicha
2024-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Ijro holati
1.	Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish	1. Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 43 foizga yetkazishni nazarda tutgan holda Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalariga 2024/2025 o‘quv yili uchun to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlariga takliflarni ishlab chiqish. 2. Qabul parametrlari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni o‘qitish tillari kesimida tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasiga taqdim etish.	2024-yil may 2024-yil iyun	Bajarildi. 1. Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalariga 2024/2025-o‘quv yili uchun umumiy qabul parametrlariga takliflar-yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 43 foizga yetkazishni nazarda tutgan holda shakllantirildi. Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalariga 2024/2025 o‘quv yili uchun o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari rejasiga takliflar shakllantirildi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik, idoralar bilan birgalikda ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024/2025 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” Farmoyish loyihasi o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi F-36-son farmoyishiga muvofiq 2024/2025 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari: bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha kunduzgi ta’lim shakliga - 34 838 nafar etib; magistrlar tayyorlash bo‘yicha - 9365 nafar etib tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish

				bo'yicha davlat komissiyasi majlisining 2024-yil 25-iyuldagi 61-3-son bayoniga muvofiq: 2024/2025 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriati hamda magistraturasiga umumiy qabul parametrlarining mutaxassisliklar va o'qitish tillari bo'yicha taqsimoti tasdiqlandi. Qabul parametrlari jami 212392 ta. Jumladan: Bakalavriat, kunduzgi ta'lim – 127995 ta, Bakalavriat, sirtqi ta'lim – 52129 ta, Bakalavriat, kechki ta'lim – 9158 ta, Bakalavriat, masofaviy ta'lim – 5610 ta, Magistratura – 17500 ta.
2.	Nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi qabul parametrlarini oshirish	1. Nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalariga so'nggi ikki yil davomida ajratilgan davlat granti kvotalarini tahlil qilish. 2. Tahlil natijalariga hamda iqtisodiyotning real sektorida kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda davlat buyurtmasi qabul parametrlarini 1 200 nafarga yetkazish.	2024-yil may 2024-yil iyun	Bajarildi. 1. 2022/2023-o'quv yili uchun 14 ta xorijiy oliy ta'lim tashkilotlariga 600 ta, 18 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga 400 ta kunduzgi ta'lim shakli uchun jami 1000 ta davlat granti o'rinlari ajratilgan. Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida davlat granti o'rinlarining 546 tasiga qabul amalga oshirilgan bo'lib, shundan 54 ta kvota bo'sh qolgan. Shuningdek, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridagi davlat granti o'rinlarining 348 tasiga qabul amalga oshirilgan bo'lib, 52 tasi bo'sh qolgan. Jami 106 ta kvota bo'sh qolgan. 2023/2024-o'quv yili uchun esa 11 ta xorijiy oliy ta'lim tashkilotiga 565 ta, 27 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari kunduzgi ta'lim shakliga 455 ta davlat granti o'rinlari ajratilgan. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining 18 ta kvotasi, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filiallarning 31 tasi, jami 49 ta kvota bo'sh qolgan. Ajratilgan mazkur grantlar doirasida xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan 11 nafari talabalar safidan chetlatilgan, 2 nafari akademik ta'til olgan, 4 nafari akademik qarzdorlik olganligi sababli kursdan qoldirilgan, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida esa 24 nafari talabalar safidan chetlatilgan. 2. Tahlil natijalariga hamda iqtisodiyotning real sektorida kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda davlat buyurtmasi qabul parametrlarini 1200 nafarga yetkazish bo'yicha takliflar 2024-yilning 23-maydagi 01/10-1508-son xati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

				O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyundagi “2024/2025 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” F-36-son farmoyishi bilan respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga 1200 ta davlat granti ajratildi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 23-iyuldagi 01/10-2087-son xati bilan takliflar O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasiga kiritildi. Mazkur 1200 ta davlat grantlarining oliy ta’lim tashkilotlari va ta’lim yo‘nalishlari kesimidagi taqsimoti O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining 2024-yil 25-iyuldagi 61-3-son bayoniga muvofiq tasdiqlandi.
3.	Mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarini yiriklashtirish hisobiga ularning sonini kamida 40 foizga maqbullashtirish. Bu orqali 2024/2025 o‘quv yilida professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamalarini kamida 10 foizga qisqartirish va ularning ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirish	1. Xorijiy tajriba asosida oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatorining yangilangan tahririni ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash. 2. 2024/2025 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamalarini qisqartirish.	2024-yil may 2024-yil sentyabr	Bajarildi. 1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi tomonidan xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlarini 40 foizga maqbullashtirishni nazarda tutgan holda Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorining yangi tahriri ishlab chiqilib, tasdiqlandi. 2. 2024/2025 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga yo‘naltirilmagan fanlarni akademik guruhlar sonini maqbullashtirish, o‘zaro yaqin bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklarining tegishli (mos keluvchi) fanlarini birlashtirilgan guruhlarda o‘qitishni tashkil etish orqali professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamalarini 10 foizga qisqartirish choralari ko‘rildi.

4.	Ish beruvchilar takliflari hamda xalqaro reyting tashkilotlarning TOP-300 talik ro'yxatiga kirgan oliygohlar dasturlari asosida 181 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarini takomillashtirish va tasdiqlab tegishli oliy ta'lim muassasalariga yetkazish	1. Ish beruvchilar takliflari hamda xalqaro reyting tashkilotlarning TOP-300 talik ro'yxatiga kirgan oliygohlar tajribalarini o'rganish. 2. O'rganish natijalariga ko'ra respublika oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlanadigan 181 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarini takomillashtirish va tasdiqlab tegishli oliy ta'lim muassasalariga yetkazish.	2024-yil iyun	Bajarildi. TOP-300 oliy ta'lim muassasalari ta'lim dasturlarida asosida oliy ta'lim yo'nalishlari 40 foizgacha maqbullashtirildi. Natijada 306 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi 183 taga, 645 ta magistratura mutaxassisliklari 546 taga qisqartirildi va yangilangan "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" tasdiqlandi. Maqbullashtirilgan 183 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 546 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari 23 ta ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilib tasdiqlandi va barcha oliy ta'lim muassasalariga etkazib berildi.
5.	Ishlab chiqilgan malaka talablari hamda TOP-300 talikka kirgan oliygohlar dasturlari asosida oliy ta'lim muassasalarining 181 ta o'quv rejalaridagi fanlardan o'quv dasturlarini yangilash	1. Respublika oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalar va ularda keltirilgan fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini inventarizatsiyadan o'tkazish. 2. Ishlab chiqilgan malaka talablari hamda TOP-300 talikka kirgan oliygohlar dasturlari asosida oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini ishlab chiqish tasdiqlash.	2024-yil iyun	Bajarildi. TOP-300 oliy ta'lim muassasalari ta'lim dasturlari hamda ish beruvchi korxona va tashkilotlarning talablari asosida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish maqsadida vazirlikning 2024-yil 29-maydagi 193-sonli buyrug'i bilan Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlarining tarkibi yangilandi. Bunda 26 ta ta'lim sohasi bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari tarkibida kadrlar buyurtmachilari vakillarining salmog'i keskin oshirildi. Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari tomonidan malaka talablari ishlab chiqilishi jarayonida iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozori talablariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari muvofiq fan bloklari tarkibi, o'quv yuklamalari hajmi maqbullashtirildi. Ushbu malaka talablari asosida o'quv reja va o'quv dasturlar ishlab chiqildi hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanib, 2024/2025-o'quv yilidan ta'lim jarayoniga tatbiq etildi.
6.	Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ishlab chiqarish amaliyotlarini muvofiqlashtirib, muhandislik sohalari	1. Muhandislik sohalari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining soha yo'nalishlarining o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish va zaruratga ko'ra yangilash. 2. Muhandislik sohalari bo'yicha	2024-yil noyabr	Bajarildi. TOP-300 oliygohlar ta'lim dasturlarida asosida oliy ta'lim yo'nalishlari 40 foizga maqbullashtirildi va buning natijasida 306 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi 183 taga, 645 ta magistratura mutaxassisliklari 546 taga qisqartirib yangilangan "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"

	ta'lim yo'nalishlarida 15 haftalik uzoq muddatli amaliyotlarni joriy qilish	kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining soha bo'yicha yirik korxona va tashkilotlar bilan talabalarning 15 haftalik uzoq muddatli amaliyotlarini tashkil qilish bo'yicha shartnomalar imzolash hamda ijroga yo'naltirish.	tasdiqlandi. Maqbullashtirilgan 183 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 546 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari ishlab chiqilib tasdiqlandi hamda barcha oliygohlarga yetkazib berildi. Jumladan, muhandislik sohalar bo'yicha 45 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari maqbullashtirilib, 32 ta taga, 69 ta magistratura mutaxassisliklari 66 taga qisqartirildi. Bunda: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqib, majburiy va tanlov fanlari muvozanati maqbul holatga keltirildi; bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatidan kelib chiqib amaliyotga yo'naltirilgan dasturlarni o'quv jarayoniga joriy etish; talabalarning mustaqil ta'lim olishi, muntazam o'z ustida ishlashi, tizimli fikrlashi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish, iqtidorini erkin namoyon qilishi uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi choralari ko'rish; talabalarda amaliy kompetensiyalar va ko'nikmalarni kuchaytirish maqsadida ishlab chiqarish amaliyotlari muvofiqlashtirilib kamida 15 haftalik uzluksiz malakaviy amaliyotlar shaklida o'tkazilishi belgilandi. Shuningdek, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab, oliy ta'lim muassasalarining korxona va tashkilotlarda tashkil qilingan filiallarida ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, 3,4-kurs bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va 1,2-kurs magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayonlari bosqichma-bosqich dual ta'lim tizimi asosida tashkil qilindi. Jumladan, dual ta'lim asosida Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan tasdiqlangan dars jadvali asosida ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, korxona va tashkilotlar bilan tuzilgan 35 ta hamkorlik shartnomalariga asosan, ularda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislari talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash uchun mashg'ulotlar va master klass darslari tashkil etildi. Dual ta'lim tashkil etilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari
--	--	--	---

				uchun ishlab chiqilgan o'quv rejalarida talabalarning oliy ta'lim muassasalari ta'lim dasturlarining nazariy va amaliy qismi, ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismlarini korxonada o'tkazilishi inobatga olindi.
7.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni kengaytirish.	1. "Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 10 ta qo'shma ta'lim dasturlarini vazirlikda ekspertizadan o'tkazish. 2. Ijobiy ekspertiza xulosasiga ega qo'shma ta'lim dasturlariga qabul kvotalarini kelishib berish. 3. "Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan 10 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.	2024-yil iyul 2024-yil oktyabr	Bajarildi. "Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 3 ta qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha shartnomalar imzolandi. Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan respublikamizning 8 ta oliy ta'lim muassasasi "Top-500"ga kirgan 9 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 4 ta ta'lim yo'nalishi va 11 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari ekspertizadan o'tkazilib 269 ta qabul kvotalari kelishib berildi. 1. Samarqand davlat universiteti Rossiya Federatsiyasining Tomsk davlat universiteti bilan hamkorlikda 70411001-Inson resurslarini boshqarish mutaxassisligi bo'yicha (12 ta kvota); 2. Geologiya fanlari universiteti Rossiya Federatsiyasining Tomsk davlat universiteti bilan hamkorlikda 70530301-Geologiya mutaxassisligi bo'yicha (10 ta kvota); 3. Geologiya fanlari universiteti Rossiya Federatsiyasining M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti bilan hamkorlikda 60530300-Geologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha (20 ta kvota); 4. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Rossiya Federatsiyasining Rossiya xalqlar do'stligi universiteti bilan hamkorlikda 60910200-Davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha (30 ta kvota); 5. Qo'qon davlat pedagogika instituti Rossiya Federatsiyasining Qozon Federal universiteti Yelabuga instituti filiali bilan hamkorlikda 60110800- Ona tili va adabiyoti: Rus tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha (25 ta kvota); 6. Qo'qon davlat pedagogika instituti Rossiya Federatsiyasining Qozon Federal universiteti Yelabuga instituti filiali bilan hamkorlikda 60540200-Amaliy matematika ta'lim yo'nalishi bo'yicha(25 ta kvota); 7. Qo'qon davlat pedagogika instituti Rossiya Federatsiyasining Qozon Federal universiteti Yelabuga instituti filiali bilan hamkorlikda 70110801- Ona tili va adabiyoti: Rus tili va adabiyoti mutaxassisligi

				bo'yicha(15ta kvota); 8. Bank moliya akademiyasi Rossiya Federatsiyasining "Oliy iqtisodiyot maktabi" Milliy tadqiqot universiteti bilan hamkorlikda 70410501-Moliya mutaxassisligi bo'yicha (12 ta kvota); 9. Bank moliya akademiyasi Malayziyaning Utara universiteti bilan hamkorlikda 70410901-Biznes boshqarish (Master of business administration) mutaxassisligi bo'yicha (40 ta kvota); 10. Qo'qon davlat pedagogika instituti Rossiya Federatsiyasining Qozon Federal universiteti Yelabuga instituti filiali bilan hamkorlikda 70610105-Ta'limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi bo'yicha (15 ta kvota); 11. Toshkent davlat agrar universiteti Xitoy Xalq Respublikasining Shimoliy g'arbiy qishloq va o'rmon xo'jaligi universiteti bilan hamkorlikda 70410901-Biznesni boshqarish (Master of business administration-MBA) mutaxassisligi bo'yicha (20 ta kvota); 12. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Rossiya Federatsiyasining "MMFT" milliy tadqiqot yadro universiteti bilan hamkorlikda 70410109-Iqtisodiy xavfsizlik mutaxassisligi bo'yicha(25ta kvota); 13. Nukus davlat pedagogika instituti Qozog'iston Respublikasi Gomilev nomidagi Yevrosiyo milliy universiteti bilan hamkorlikda 70510101-Biologiya mutaxassisligi bo'yicha(10 ta kvota); 14. Nukus davlat pedagogika instituti Qozog'iston Respublikasi Gomilev nomidagi Yevrosiyo milliy universiteti bilan hamkorlikda 70530101-Kimyo mutaxassisligi bo'yicha(10 ta kvota); Nukus davlat pedagogika instituti Qozog'iston Respublikasi Gomilev nomidagi Yevrosiyo milliy universiteti bilan hamkorlikda 70110801-Ona-tili va adabiyoti (Qozoq tili va adabiyoti) mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlariga (10 ta) qabul kvotalari kelishib berildi.
8.	Oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli "Top-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga	1. Nufuzli xorijiy reyting tashkilotlari mas'ullari ishtirogida seminar-treninglar tashkil etish. 2. Xorijiy reyting tashkilotlari mas'ullari bilan hamkorlikda oliy ta'lim	2024-yil iyun-sentyabr	Bajarildi: 2024-yilning 10-13-iyun kunlari Tailandning Bangkok shahrida "Times Higher Education" xalqaro reyting tashkiloti tomonidan o'tkazilgan "Global Barqaror Rivojlanish Kongressi"da respublikaning 10 ta OTM ishtirokida

	kiritish.	muassasalari reyting ko'rsatkichlarini tahlil qilish. 3. Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli reyting tashkilotlari xalqaro forumlarida ishtirok etishini ta'minlash. 4. Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reyting tashkilotlarining mintaqaviy yoxud sohaviy "Top-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish.	2024-yil dekabr	"O'zbekiston pavilyoni" tashkil etildi. Joriy yilning 27-sentyabr kuni Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi O'zbekistondagi milliy ofisi bilan hamkorlikda "OTMLar uchun strategiyalar: Oliy ta'lim muassasalariga Xalqaro reytinglarni yo'naltirish" mavzusida TYM kuzatuv seminar-trening tashkil etildi. Joriy yilda respublikaning ikki oliy ta'lim muassasasi QS jahon universitetlar reytingi-2025 TOP-1000 ro'yxatidan joy oldi. "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari" Milliy tadqiqot universiteti — 547 o'rin; Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti — 781-790 o'rinni egalladi.
9.	Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.	1. Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari bilan ta'lim dasturlarini baholash maqsadida shartnomalar tuzish. 2. Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.	2024-yil I chorak 2024-yil dekabr	Bajarildi: 2024-yilda 9 ta oliy ta'lim muassasalarining 43 ta ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilib, xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining muvofiqlik sertifikatlari olindi.
10.	Talabalarga mutaxassislik sohalari bo'yicha xorijiy tajribalarni tezkor yetkazish hamda ularning bilim va ko'nikmalarini chet el tajribalari asosida shakllantirish maqsadida xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini oliy ta'lim muassasalariga o'quv jarayonlariga jalb qilish.	1. Joriy yilda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga xorijdan jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini ko'rsatkichlarini tasdiqlash. 2. Xorijdan jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini monitoringini yuritish.	2024-yil may 2024-yil dekabr	Bajarildi. Davlat oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining umumiy soniga nisbatan 6,5 foizini (<i>respublika bo'yicha jami 38 246 nafar professor-o'qituvchidan 2 498 nafari</i>) xorijiy davlatlarga malaka oshirish, stajirovka uchun yuborish rejasi tasdiqlandi. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga 2024-yilda 2510 nafar xorijiy professor-o'qituvchilar jalb qilindi.

11.	Oliy ta'lim sifatini xalqaro tajriba va standartlar asosida takomillashtirish, professor-o'qituvchilarning jahon fan va texnologiyalarining so'nggi yangiliklaridan xabardorligini oshirish maqsadida pedagog kadrlarni yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga tajriba orttirish uchun yuborish.	1. Joriy yilda xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuboriladigan rahbar va pedagog xodimlar ko'rsatkichlarini tasdiqlash. 2. Malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborilgan rahbar va pedagog xodimlarni monitoring qilib borish.	2024-yil may 2024-yil dekabr	Bajarildi. Davlat oliy ta'lim muassasalarining 13 foizini (<i>respublika bo'yicha jami 38 246 nafar professor-o'qituvchining 4969 nafari</i>) xorijiy davlatlarga malaka oshirish, stajirovka uchun yuborish rejasini tasdiqlandi. Reja-grafik asosida 2024-yilda xorijda 4969 nafar professor-o'qituvchilarning malaka oshirishi va stajirovka o'tashi tashkil etildi.
12.	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi izlanuvchilar sonini oshirish.	1. Har chorakda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga talabgorlarni qabul qilish bo'yicha e'lonlar berish. 2. Talabgorlarni o'rnatilgan tartibda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilish. 3. Ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi izlanuvchilar sonini oshirish.	2024-yil har chorakda 2024-yil har chorakda 2024-yil dekabr	Bajarildi. 1. Yil davomida oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga talabgorlarni qabul qilish bo'yicha e'lonlar berib borildi (https://t.me/ilmiy_darajali_kadrlar/603). 2. Berilgan e'lonlarga asosida joriy yil davomida 220 ta ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlariga stajor-tadqiqotchilik instituti va oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga jami 31 099 nafar talabgordan arizalar kelib tushdi. 3. Ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan imtihon va suhbat jarayonlari natijalariga asosan stajor-tadqiqotchilikga va oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha shakllariga jami 11 941 nafar talabgor qabul qilingan. Shundan: 1-chorakka – 4 737 nafar; 2-chorakka – 4 639 nafar; 3-chorakka – 1 840 nafar; 4-chorakka – 725 nafar talabgor qabul qilingan. Hozirda stajor-tadqiqotchilik instituti va oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida ilmiy tadqiqot olib borayotgan

				izlanuvchilar jami soni 22 905 nafarni tashkil etmoqda.
13.	Xorijiy tashkilotlarga qisqa muddatli stajirovkalarga yuboriladigan 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini 47 foizga yetkazish.	1. Yosh olimlarni stajirovkaga yuborish bo'yicha yangi tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish. 2. Stajirovka o'tashga tavsiya etilgan nomzodlarni stajirovkaga yuborish uchun shartnomalar tuzilishini tashkil etish. 3. Stajirovka yakuniga ko'ra ilmiy hisobotni qabul qilish. 4. Xorijiy tashkilotlarga qisqa muddatli stajirovkalarga yuboriladigan 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini bosqichma-bosqich 47 foizga yetkazish.	2024-yil iyun 2024-yil dekabr 2024-yil dekabr	Bajarildi. 1. Yosh olimlarni stajirovkaga yuborish bo'yicha yangi tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Agentlik rasmiy saytida e'lonlar berildi. Tanlov natijalari bo'yicha belgilangan tartibga muvofiq ikki bosqichdan iborat saralash tanlovlari o'tkazildi va 42 nafar nomzodlar saralab olindi. https://innovation.gov.uz/news/post-1594 https://innovation.gov.uz/news/post-1651 https://innovation.gov.uz/news/post-1722 2. Stajirovka o'tashga tavsiya etilgan nomzodlarni stajirovkaga yuborish uchun 2024-yil 1-dekabr holatiga 277 nafar yosh tadqiqotchilar xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga ilmiy stajirovkaga yuborish uchun shartnomalar tuzilgan. 3. Nomzodlar stajirovkaga o'tab kelganidan so'ng o'rnatilgan tartibda hisobotlari qabul qilinadi. 4. Joriy yilda xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga ilmiy stajirovkaga yuborilgan yosh tadqiqotchilar 277 nafarni tashkil etib, bunda 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushi 87 foizni tashkil etmoqda.
14.	Oliy ta'lim muassasasi Axborot-resurs markazlari fondidagi o'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish.	1. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish samaradorligini oshirish bo'yicha monitoringini olib borish. 2. Oliy ta'lim muassasalari mas'ullari ishtirokida seminar treninglar tashkil etish. 3. O'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish ko'rsatkichini 65 foizga yetkazish.	2024-yil doimiy 2024-yil doimiy 2024-yil dekabr	Bajarildi: Topshiriqqa muvofiq har chorakda oliy ta'lim muassasalari Axborot-resurs markazi fondidagi o'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish bo'yicha monitoring olib borildi. Shuningdek, axborot-resurs markazlari rahbar va xodimlari ishtirokida 2 marta seminar-trening mashg'ulotlari o'tkazildi. 2024-yil dekabr oyi holatiga oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari fondidagi 3 mln 657 ming 973 nomdagi adabiyotlarning 1 mln 214 ming 633 nomdagisi (65 foizi) elektron shaklga o'tkazildi.
15.	Oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy salohiyatini oshirish.	1. Respublika oliy ta'lim tashkilotlarida o'qituvchilar, tadqiqotchilarning ilmiy darajalar olishini har tomonlama qo'llab-	2024-yil yanvar-dekabr	Bajarildi. 2024-yilda Respublikaning 108 ta OTMda 38138 nafar (shunday fan doktorlari (DSc) 3322 nafar, fan nomzodlari (PhD) 13931 nafar) professor-o'qituvchilar ilmiy-pedagogik faoliyat

		quvvatlash choralari ko'rish. 2. Oliy ta'lim tashkilotlari ilmiy salohiyati ko'rsatkichi monitoringini yuritish. 3. 2024-yilda oliy ta'lim tashkilotlari ilmiy salohiyatini jami 45 foizga yetkazish.	2024-yil yanvar-dekabr	olib borishmoqda. Oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy salohiyat 45,2% ni tashkil etadi. Oliy ta'lim hamda ilmiy tashkilotlarda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan 39 yoshgacha bo'lgan doktorantlar (PhD/DSc) 2024-yilda 4357 nafar. 2025-yil uchun Respublika OTMlari va ilmiy tashkilotlarga Davlat byudjeti hisobidan oliy ta'limdan keyingi ta'limga 5250 ta kvota ajratildi. Oliy ta'lim ilmiy tashkilotlarda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan 39 yoshgacha bo'lgan doktorantlar (PhD/DSc) 2024-yilda 3384 nafar. "Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi"da (https://daraja.ilmiy.uz) respublikaning 42 ta vazirlik-idoralari tizimidagi oliy ta'lim hamda ilmiy tashkilotlarda (241ta) ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan 22180 nafar tadqiqotchilar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.
16.	Talabalarni turar joy bilan ta'minlanish darajasini oshirish.	1. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, oliygoh va byudjet mablag'lari hamda investitsiya dasturi doirasida talabalar turar joylarini qurish bo'yicha loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish. 2. 2024-yil yakuniga qadar oliy ta'lim muassasalarida 27 ming o'rinli talabalar turar joylarini yaratish.	2024-yil sentyabr 2024-yil dekabr	Bajarildi. 2024-yilda Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, oliy ta'lim muassasalari hamda budjet mablag'lari hisobidan respublika OTMda talabalar uchun 27 554 yotoq o'rinlari yaratildi.
17.	Oliy ta'lim muassasalarining quvvatlarini oshirish hamda talaba va professor-o'qituvchilarga qulay shart sharoitlar yaratish maqsadida qo'shimcha o'quv binolarini barpo etish.	1. Investitsiya dasturi doirasida hamda oliy ta'lim muassasalarining o'z mablag'lari hisobidan yangi o'quv binolarini qurish ishlarini amalga oshirish. 2. Oliy ta'lim muassasalarida yangi o'quv binolarini qurish hisobiga qo'shimcha 16400 o'quv o'rinlarini yaratish.	2024-yil davomida 2024-yil dekabr	Bajarildi. 2024-yilda respublika miqyosida Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida respublika byudjeti mablag'lari hamda oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan o'quv binolarini qurilish-tiklash ishlari olib borilishi hisobiga oliy ta'lim muassasalarida 17 300 o'rinli yangi o'quv binolari foydalanishga topshirildi.
18.	Akademik litsey	1. "Diplomlar" quyi tizimini ishga	2024-yil	Bajarildi:

	bitiruvchilariga individual QR-kodli diplom va uning ilovalarini taqdim etishni yo'lga qo'yish.	tushirish bo'yicha buyruq loyihasini ishlab chiqish. 2. Tasdiqlangan texnik topshiriqqa muvofiq "Akademik litseylarda ta'lim jarayonlarini boshqarish" axborot tizimida "Diplomlar" quyi tizimini ishga tushirish. 3. Axborot tizimida QR-kodli diplom va uning ilovasini shakllantirish bo'yicha seminar-trening o'tkazish.	may 2024-yil iyun 2024-yil iyun	1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 29-martdagi 92-son buyrug'i tasdiqlandi. Mazkur buyruq bilan tasdiqlangan "Joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha reglamentlarni ishlab chiqish hamda joriy etish reja-jadvali"da akademik litseylarda ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimidan foydalanish bo'yicha o'rta maxsus ta'lim to'g'risidagi diplom blankalariga individual QR-kodli diplomlarni berishni inobatga olgan holda reglamentini ishlab chiqish belgilangan. 2. Vazirlik huzuridagi Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan "Akademik litseylarda ta'lim jarayonlarini boshqarish – EMIS" axborot tizimi takomillashtirilib, "QR kodli diplom hamda sertifikat shakllantirish" imkoniyati yaratildi. <i>Ma'lumot uchun: 2023-2024 o'quv yili yakuni bo'yicha 14497ta QR kodli diplom hamda sertifikatlar mazkur tizim orqali shakllantirib berildi.</i> 3. Yaratilgan imkoniyatlardan ta'lim muassasalarida foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida 2024-yil 7-may kuni onlayn seminar tashkil etildi.
19.	Jismoniy va yuridik shaxslarga oliy, o'rta maxsus va professional ta'limga tegishli 6 turdagi ma'lumotnomalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etish.	1. Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimidagi ma'lumotnomalar berish davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 2. 6 turdagi Ma'lumotnomalarni taqdim etish bo'yicha xizmatlarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ishga tushirish.	2024-yil iyul 2024-yil oktyabr	Bajarildi: Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimidagi ma'lumotnomalar berish davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi (ID-96767) Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi belgilangan tartibda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilishi hamd "Jamoatchilik muhokamasi"dan o'tkazilishi ta'minlandi. Vazirlikning 2024-yil 9-sentyabrdagi 01/22-09/09-sonli xati bilan mazkur qaror loyihasi o'rnatilgan reglamentga muvofiq huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun Adliya vazirligiga "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi" orqali kiritildi. Adliya vazirligining 2024-yil 18-sentyabrdagi 8/3-0802-sonli Huquqiy ekspertiza natijalari bo'yicha xulosasi olindi. Xulosaga muvofiq Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

				vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 6 turdagi: 1. Talabalar turar joyiga joylashish uchun ariza yuborish (https://my.gov.uz/uz/service/870); 2. Talabaning hisoblangan stipendiyalari haqida ma'lumot olish (https://my.gov.uz/uz/service/963); 3. Oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish (https://my.gov.uz/uz/service/742); 4. O'qish joyidan ma'lumotnoma olish (akademik litsey va professional ta'lim muassasalaridan) (https://my.gov.uz/uz/service/761) ; 5. O'rta maxsus va professional ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish (https://my.gov.uz/uz/service/744); 6. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun akademik ma'lumotnoma (transkript) olish (https://my.gov.uz/uz/service/851) xizmatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ishga tushirildi.
20.	Professional ta'lim jarayonlarini boshqarishning raqamli transformatsiyasi — EMIS 2.0. platformasini ishga tushirish.	1. Axborot tizimini tegishli tashkilotlardan ekspertizadan o'tkazish, takomillashtirish hamda texnik qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirish. 2. Tasdiqlangan qo'shimcha texnik topshiriqqa muvofiq "Professional ta'lim jarayonlarini boshqarish -EMIS" axborot tizimini yangi talqinini ishlab chiqish. 3. Axborot tizimini joriy etish hamda tizim foydalanuvchilarini o'qitish.	2024-yil may 2024-yil iyul 2024-yil sentyabr	Bajarildi: 1. Axborot tizimini texnik topshirig'i loyihasi ishlab chiqilib vakolatli organlardan belgilangan tartibda ekspertiza xulosalari olinishi ta'minlandi. 2. Vazirlikning "Akademik litseylar va professional ta'lim muassasalari faoliyatiga axborot tizimlarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish to'g'risida" 2024-yil 28-avgustdagi 324-sonli buyrug'i ga muvofiq tizimini yangi talqinini ishlab chiqildi. 3. Vazirlikning "Akademik litseylar va professional ta'lim muassasalari faoliyatiga axborot tizimlarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish to'g'risida" 2024-yil 28-avgustdagi 324-sonli buyrug'ining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan reja grafikka asosan professional ta'lim muassasalari rahbar va xodimlari uchun axborot tizimini joriy etish va foydalanish bo'yicha seminarlar tashkil etildi.

21.	Pedagog kadrlar faoliyatini baholash va yuqori natijalarni qayd etgan pedagoglar malaka toifasini oshirish hamda pedagoglar sifat tarkibini 30 foizga yetkazish.	1. Pedagog kadrlar attestatsiyadan o'tadigan fanlardan ekspertlarni hamda test bankini shakllantirish. 2. To'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tadigan pedagog kadrlarni hujjatlarini o'rganib chiqish va ularga malaka toifasi berish; 3. pedagog.edu.uz platformasi orqali attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirgan pedagog kadrlarni test sinovlaridan o'tkazish. 4. Test sinovlari yakuni bo'yicha attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan pedagog kadrlarga malaka toifasi oshganligi bo'yicha sertifikatlar taqdim etish.	2024-yil may-dekabr	Bajarildi. Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda 692-son qaroriga asosan joriy yilning may-noyabr oylarida kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari ikki bosqichda attestatsiyadan o'tkazildi. Birinchi bosqichda 7 707 nafar pedagog attestatsiyadan o'tkazilib, attestatsiya natijalariga ko'ra 6 577 nafari attestatsiyadan o'tgan deb topildi. <i>(5159 nafar pedagogning amaldagi malaka toifasi oshirilib, 1 484 nafari malaka toifasi saqlandi, 1064 nafari malaka toifasi tushirildi).</i> Ikkinchi bosqichda 4 672 nafar pedagog attestatsiyadan o'tkazilib, attestatsiya natijalariga ko'ra 4 416 nafar pedagog attestatsiyadan o'tgan deb topildi. <i>(2 921 nafar pedagogning amaldagi malaka toifasi oshirildi, 1 495 nafari malaka toifasi saqlandi, 256 nafari malaka toifasi tushirildi).</i> Kasbiy ta'lim tashkilotining 12 379 nafar pedagog attestatsiyadan o'tkazildi. Attestatsiya natijasida pedagoglar 8 080 nafari (65,3%) ijobiy natija (toifasi oshgan), 2 979 nafari (24,0%) qoniqarli natija (toifasi saqlangan), 120 nafari (10,7%) salbiy natija (toifasi tushgan) ko'rsatdi. Attestatsiya yakunlari bo'yicha amalda malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog 8 658 nafarga yetgan holda, sifat tarkibi (jami 28 141 nafar) 30,8 foizga yetkazildi.
-----	--	---	---------------------	---